

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi



Kichik
cho'pon
Dovud



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen


...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org


©2013 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Qadim zamonda, podshoh Shoul hukmronligi davrida Dovud ismli bola o'zining ettita akalari bilan otasining chorvasini boqardi. Dovud yosh va juda kuchli bo'lib, Xudoni yaxshi korar va Unga itoat etardi. U Baytlahm yerida yashar edi.





Bir kuni uning chorvasiga
sher hujum qilib, bitta qo'zini
olib ketmoqchi bo'ldi. Shunda
Dovud sherga tashlanib, undan
qo'zini tortib oldi. So'ng sher
bilan kurashib, uni o'ldirdi.
Dovud Xudo unga yordam
berganini bilardi.

Podshoh Shoul
Xudoga qarshi ishlar
qilgandi. Bundan
Shomuil payg'ambar
juda ham xafa bo'lib
yurgan edi.



Shunda Xudo Shomuilga dedi:
"Qachongacha Shoul uchun
qayg'urib yurasan? Men seni
Yassi oilasiga jo'nataman. Men
uning o'g'llari orasidan O'zimga
podshoh tanladim." Yassi
Dovudning otasi edi.



Podshoh Shoul Shomuil
boshqa podshoh izlagani
ketganini bilganda, uni
o'ldirishi mumkinligini bilsa
ham, payg'ambar Shomuil
Xudoga itoat etdi.





Shunday qilib, Shomuil Yassini uyiga keldi. Yassi etti o'g'lini uning huzuriga olib keldi. Ammo Shomuil Xudo ularning hech birini tanlamaganini aytdi. Bu vaqtda Dovud yaylovda qo'zilarni boqib yurardi. Akalari uni chaqirib kelishdi. So'ng Xudo shunday dedi: "Shomuil, Men uni tanladim. Uni xushbo'y moy bilan moyla."





Shoul esa Xudoga itoat etmay qo'ygani uchun Xudoning Ruhi uni tark etgan edi. Shu sababli Shoul juda ham qahrlil odamga aylangandi.


Uning xizmatkorlari musiqa Shoulni tinchlantiradi, deb o'ylashdi.




So'ng kuylab, uni
tinchlantiradigan
bir yosh yigitni
olib kelishdi. U
yigit kimligini
tassavvur
qilolasizmi?
Bu Dovud edi!



Dovudning musiqlari Shoulni tinchlantirardi. Shuning uchun u Dovud saroyda qolishini so'radi. Shoulni dahshat bosgan paytlarda, Dovud musiqa chalib, uni tinchlantirardi.



Dovud uyga ketgan vaqtida, Shoul Filistlar bilan jang qildi. Bu jangda Dovudning akalari ham qatnashardi. Dovudning otasi uni akalaridan xabar olib kelish uchun jang maydoniga jo'natdi.




Filist jangchilari ichida Go'liyot ismli juda ham bahaybat jangchi bor edi. Isroil janchilari undan qo'rqishardi.



Go'liyot Isroil janchilariga: "Agar sizlardan biror kim men bilan jang qilib, meni o'ladirsa, biz hammamiz sizning qulingiz bo'lamiz, aksi bo'lsa, siz bizning qulimiz bo'lasizlar," -dedi. Ammo Isroilliklar uning bahaybatligidan juda ham qo'rqishardi.



Shunda Dovud Shoulga: "Men u bilan jang qilaman," -dedi. Shoul Dovud jang aslahalarini kiyishini hoxladi. Ammo buning o'rniga Dovud beshta tosh yig'ib, xaltasiga soldi.



Go'liyot jang aslahalarisiz jangga chiqqan Dovudni ko'rib, kului va dedi: "Sening tanangni qushlarga em qilaman!" Dovud esa: "Men esa Xudovandim nomi bilan kurashaman. Bugun U seni mening qo'llarimga topshiradi," -dedi.







So'ng Dovud
Go'liyotning
qarshisiga
yugurib borib,
unga tosh otdi.
Go'liyot shu
zahotiyoyq
yiqildi.



Dovud Go'liyotni o'ldirdi. Buni
ko'rgan Filistlar qochib ketishdi.




Isroilliklar Dovudning
g'yalabisdan xursand bo'lib,
uni maqtashdi. Bundan
Shoulning jahli chiqdi. U
Dovud meni shohligimni ham
tortib oladi, deb o'yladi.
Shundan so'ng Shoul uni
kuzata boshladi.




Bir kuni Shoul yana dahshatga tushdi. Shunda Dovud uni tinchlantirish uchun musiqa chaldi. Shu vaqtda Shoul Dovudga uch marta nayza otdi. Ammo nayza unga tegmadi.

Shoul Dovuddan qo'rqardi,
chunki Xudo unga yordam
berayotganini bilardi.



Lekin Shoulning o'g'li Yonatan Dovudni yaxshi ko'rardi. Otasi uni o'lдirmoqchi bo'lganini bilib, Yonatan Dovudni qochishiga yordam berdi.



Dovud Shouldan uzoqlarga qochib ketdi. Ammo qochishadan oldin Dovud va Yonatan bir-biriga doimo yordam berishga va'da berishdi.



Afsus do'stlar xayrlashishga majbur bo'lishdi.
Dovud bexatar joy topish uchun ketdi.



Kichik cho'pon Dovud

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

1 Shoxlik 16-20

“Kalomining ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130





Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlarингiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudolingga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

